Baroqxon



Baroqxon Navro‘z Ahmadxon ibn Suyunchxoja

(?-1556, Samarqand)

(1551-1556)

Shayboniylar sulolasidan bo‘lgan xon. ***Abulxayrxon***ning nevarasi, Toshkent hokimi *Suyunchxoja*ning kichik o‘g‘li. Otasi vafotidan so‘ng Toshkent hokimi (1525-1551-y) so‘ngra Movarounnahr xoni (1551-1556-y.). U yoshligida Vosifiydan she’riyat, musiqa, ashula, vazn va nazmdan ta’lim olgan. Ayni vaqtda chavandozlik va harbiy mashqlar bilan ko‘proq shug‘ullangan. Baroqxon XVI asr o‘rtalarida Buxoro xonligida kuchayib ketgan feudal kurashdan foydalanib, Movaronnahrni qo‘lga kiritib oldi. So‘ngra qo‘shin bilan Shayboniyxonning jiyani *Muhammad Rahim*ni Buxoro ustiga otlantirdi. Lekin Muhammad Rahim yo‘lda to‘satdan vafot etdi. Uning o‘g‘li Burxon sulton otasiga qarashli harbiy qismlar va mulozimlari bilan Buxoro ostonasiga yetib keldi. Ayni shu vaqtning o‘zida Baroqxon Toshkentdan, Abdulatifxon esa Samarqandda Buxoro ustiga qo‘shin tortib, oxir-oqibat uni egalladilar (1540). Baroqxon Burxon sultonni Buxoroni boshqarishda vaqtincha hukmdor bo‘lib turgan Muhammadyor sultonga sherik qilib qo‘ydi. Ittifoqchilar (Baroqxon va Abdulatifxon) Burxon sultonni ham o‘zlariga qo‘shib Miyonkol hukmdorlari Iskandarxon va Abdullaxonga qarshi yurish boshladilar. Abdullaxon miyonkolni Baroqxonga qoldirib, Balxga ketishga majbur bo‘ldi va u yerdan turib amakisi Balx xoni Pirmuhammadxonning yordami bilan Baroqxonga qarshi uch marta (1553,1554,1555) qo‘shin tortdi, lekin har gal mag‘lubiyatga uchradi. Baroqxon Abdullatifxon vafotidan keyin 1551 yilda Samarqandni ham egalladi.

Shunday qilib, 1551-1556 yillari Baroqxon Movarounnahrni Navro‘z Ahmadxon nomi bilan idora qildi. U o‘z nomidan pul zarb ettirdi. Movarounnahrning ko‘pgina shaharlarida uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qildi. U obodonchilik ishlariga e’tabor bergan, madrasalar qurdirgan(*“Baroqxon madrasasi”*-1531/32-XVI asrning 2-yarmi). Hofiz Tanish Buxoriyning ,,Abdullanima” asarida qayd etilishicha, Baroqxon 1556 yilda Zarafshon daryosidan boshlangan Darg‘om kanalining bosh inshooti – Ravotxoja to‘g‘onini tuzattirish uchun kelgan va shu yerda to‘satdan vafot etgan. Uning davrida Movarounnahr bilan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Sibir o‘rtasida savdo-sotiq, elchilik munosabatlari rivojlangan.

2023-10-31 23:07:56